

---

## «O'ZBEKISTON — YOSHLAR MAMLAKATI» SHIORI OSTIDA KONSERT DASTURI BO'LIB O'TDI

Bugun Toshloq tumani markazida “O'zbekiston – yoshlar mamlakati” shiori ostida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitusiyasi loyihasi mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan yoshlар sayli hamda gala-konsert bo'lib o'tdi.

Tadbirda Yangi tahrirdagi konstitusiyaning mazmun-mohiyati haqida tushunchalar berildi. So'zga chiqqanlar mamlakatimizda yoshlarning huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida jadal islohotlar amalga oshirilayotganligini qayd etib, Konstitusiyaga kiritilayotgan yangiliklar, ularning mazmun-mohiyati haqida to'xtalib o'tdilar.

Gala-konsert dasturi doirasida taniqli san'atkorlar, estrada xonandalarining musiqiy chiqishlari yoshlarning kayfiyatini ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

2023-04-25 15:21:28